

**Yo'ldosheva E'zoza**

**Ro'ziyeva Marjona**

*Termiz davlat universiteti*

*O'zbek filologiyasi fakulteti*

*Amaliy filologiya yo'nalishi*

*1-kurs talabalari*

**Annotatsiya:** Tilshunoslik ko'p tarmoqlarga bo'lingan bo'lib, uning semiotika bo'limi bor va bu bo'lim ramziy tushunchalar, belgilar haqida. Til - ramziy Sistema. Sistema haqida Chalrz Pirs fiklarida til va razmiy belgilarning qiyosiy o'xshashligi. Semiotikaning ma'nosiga qarab guruhlanishi: sematika (xabar berish), sintaktika (ifoda), pragmatika (amaliyda qo'llash imkoni).

**Tayanch so'zlar:** Tilshunoslik, Ferdinand De Sossyur, ramz, til, bo'limlar, semiotika, Chalrz Pirs, V. fon Gumbold, sintaktika, semantika, pragmatika, til strukturası.

**Аннотация:** Лингвистика делится на множество ветвей, и в ней есть ветвь семиотики, и эта ветвь посвящена символическим понятиям, знаком. Языкознаковая система. Сравнительное сходство языка и символизма в чудожественной литературе Чарлз Пирс о системе. Структура семиотики по смыслу: сематика ( сообщение), синтаксика ( выражение), прагматика ( возможность практического применения).

**Abstract:** Linguistics is divided into many branches and it has a branch of semiotics, and this branch is about symbolic concepts, signs. Language – symbolic system. Comparative similarity of linguistic and figurative symbols in Charles Peirce's fiction about the system. Grouping of semiotics according to meaning: semantics ( notification), syntaxics ( expression), pragmatics ( possibility of practical application).

Tilshunoslik fani alohida fan sifatida XIX asrning 2-yarmida shakllangan. Falsafa fani tarkibida bo'lgan ushbu fan tamomila murakkab izlanishlarni talab etadi. Negaki, Tilshunoslik fani tilning paydo bo'lishidan to uning nazariyalari, dindagi qarashlari, bo'limlari - yu izchilligini qamrab olgan fan hisoblanadi. Ferdinand De Sossyurning barcha kashfiyotlari ham aynan Tilshunoslik fanining rivojlanishiga asos bo'ladi. Olim va uning shogirdlarining say – harakati natijasida tilshunoslik fani bugungi kundagi murakkab holga kelgan. Ammo Sossyurning birorta kitoblari ham hayot chog'ida chop etilmagan. Vafotidan keyin to'plam holatida chop etilgan. Quvonarlisi, o'zbek olimlari: M. T. Irisqulov, N. Uloqov, H. Ne'matov, B. Mengliyev, A. Botirova, Z. T. Xolmonova, O'. Sharipova, I. Yo'ldoshevlar ham tilshunoslikning rivojlanishiga o'zining munosib hissalarini qo'shishgan. " Hozirgi zamon fani va tajribasi to'la shohidlik beryaptiki, - deydi V.

G. Afanasyev, - bizni qurshab turgan muhit ( bu ham moddiy, ham ma'naviy) o'zaro ajralgan alohida – alohida predmet, hodisa, jarayonlardan tashkil topgan emas, balki o'zaro bog'langan obyektlar yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, bir butun, system tuzilmaning ma'lum bir turidir”.

Tilshunoslik fanining tarixida tilning tabiatini, ijtimoiy mohiyati kabi eng muhim masalalarni o'rganishda turli nazariyalar va oqimlar mavjud bo'lgan. A. Shleyxer tilning tabiatini, tilning biologik tabiatini to'g'risida, G. Paul til haqida individga xos hodisa ekani haqida, Vundt xalq psixologiyasi va til o'rtasidagi munosabat to'g'risida ilmiy ish olib borishgan va bir qancha asarlar yozishgan<sup>19</sup>

Ramz tushunchasi – ko'p ma'noli. Olimlar tomonidan unga har xil ta'rif berilgan. Ba'zi olimlar ramzni nimanidir almashtira oluvchi, qulaylik uchun biror narsa o'rnnini egallovchi boshqa narsa deb hisoblashsa (J. Bris), boshqa bir nuqatyi nazar egalari “ boshqa bir narsalarni o'zining tabiiy xususiyatlari orqali emas, balki insonlar tomonidan kelishilganlik, qabul qilinganlik asosida anglatish uchun yaratilgan moddiylik “ sifatida talqin qilinadi<sup>20</sup>

Biz bilgan Ramz so'zining eng keng ma'nosi – davlat ramzlari. Biz aynan gebr, madhiya, bayroqlarni ramz sifatida bilamiz. Ammo tilshunoslikda ramz atamasi tamomila boshqa ma'noda qo'llanadi. Qomusiy adabiyotlarda esa 3 xil razm ma'nosi bor<sup>21</sup>. Ramz atamasining sinonimlari: belgi, timsol. Belgi – predmetning muhim, ajralib turuvchi sifatini, ma'lum bir xususiyatini ifodalaydi. Timsol esa ideal g'oyaning modiylashtirilgan ifodalanishi, narsani eslatib turuvchi, ko'z o'nggimizda gavdalantirishirimizga imkon berishi hisoblanadi. Tilshunoslikdagi “ ishora ” so'zi ham, ba'zan shartli belgi birikmasi ma'nosida ham qo'llaniladi. Ramz uchun umumiyligi ontologik xususiyat sezuvchiga o'zi haqida emas, balki sezilish asosida boshqa narsa haqida axborot berish. Shunday ikki tomonli moddiylik ramz sanaladi<sup>22</sup>


Tilshunoslikda umumiyligi tilni ramz deb olsak bo'ladi. Negaki til ham bir sistemani o'zida ifoda eta oladi. Aynan Til- ramziy Sistema atamasi yuqoridagi fikrning yorqin dalili hisoblanadi. Tilning sistemasini yaratish ekanmiz, avvalo, uning bo'limlarga bo'linishi va uning kichik – kichik guruhlanishiga e'tibor berishimiz va o'rganishimiz kerak. Albatta, TILSHUNOSLIK juda murakkab sistemani hosil qiladi:

<sup>19</sup> Xolmanova Z. T. tilshunoslikka kirish. Toshkent – 2007. Bet : 30

<sup>20</sup> H. Ne'matov, B. Mengliyev, A. Botirova. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Monografiya. “GlobeEdit” nashriyoti. Toshkent – 2020. 70 bet.

<sup>21</sup> Философский словарь. Под ред. М. М. Розенталя, П. Ф. Юдина. –М.: Изд. СЭ. 1968. –С.120

<sup>22</sup> Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Monografiya. Toshkent – 2020. Bet: 73



Semiotika terminining yana bir nomi “ semiologiya ” deyiladi. Semiotika so’zi yunoncha sema so’zidan olingan bo’lib, “ ramz ” degan ma’noni anglatadi. Semiotika – ramz va ramziy sistemalar xususiyatini o’rganuvchi maxsus fan.

Semiotikaning asoschisi amerikalik faylasuf, matematik va mantiqshunos Charlz Pirs ( 1839 – 1914 ). Mustaqil fan sifatida bizda u yaqinda shaakllandı<sup>23</sup>. Semiotika fanining ulkan yutuqlari: elektronika, hisoblash mashinalari, informatika ravnaqi bilan bog’liq.

Lingvistik semiotikadagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo’lib, u muayyan matnlardagi va muomala vaziyatidagi shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida namoyon bo’ladi. Belgi o’z shartli ravishda aloqador bo’lgan narsa haqida muayyan jamiyat vakillariga xabar beradi. Belgilarning eng muhim va murakkab tizimi tilshunoslik o’rganadigan tildir<sup>24</sup>

Semiotika ramzlarning ma’lum tizimlarda munosabatlarni o’rganuvchi va ramzning ifoda tomoni tadqiqiga ko’proq e’tibor beruvchi sintaktika, ramzning xabar berish va axborot uzatish imkoniyatini o’rganuvchi sematika, ramz va ramziy tizimning amaliyotda qo’llanilishi bilan shug’ullanuvchi pragmatika kabi bo’limlardan iborat<sup>25</sup>

Sistemaning umumiylari nazariyasi ustida ish olib borayotgan olimlarning fikricha, Sistema “ bir – biri bilan bog’langan elementlar majmuyi ” , “ elementlarning har qanday yig’indisi va ular orasidagi munosabat ”, “ tarkibiy qismlarga bo’lina oladigan va struktura deb atalmish elementlar orasidagi bog’lanish sxemasiga ega bo’lgan murakkab butunlik ” dir<sup>26</sup>

Til har bir jamiyat uchun “ azaldan tayyor ”, qabul qilinishi umumiylari majburiy bo’lgan avlodlar merosidir. Bir qarashda tovushlar, so’zlar va ularning tartibsiz yig’indisidan iboratdek bo’lib kelgan til, aslida murakkab siztemani tashkil

<sup>23</sup> Словар иностранных словю – М.: Изд. СЭб 1964. –С 583

<sup>24</sup> Степанов Ю. С., Семиотика, М. 1971

<sup>25</sup> Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Toshkent – 2020. Bet: 77-78

<sup>26</sup> M. T. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Yoshlar matbuoti nashriyoti. Toshkent – 2009. 227 bet

qiladi. Tilning sistematik xususiyatini tilshunoslik tarixida birinchi bo'lib taniqli nemis olimi V. fon Gumbold ochib bergen.

Tilning qurilishi birliklari bo'lgan fonema, morfema, leksema va qolip, modellar sirasidaa fonema boshqa barchasi ramz tarkibiga kiradi. Tilning struktur birliklaridan fonemaning ramziy mohiyati tilshunoslikda munozarali, chunki fonemalar tilning bir tomonli – faqat moddiy tomonli birliklari bo'lib, ma'no va mazmun bilan bevosita farqlanadi. Shu asosda uni ko'p olimlar ramz deb hisoblashmaydi.

Til shunday ramziy tizimki, u ma'lum bir jamiyat hamma a'zolarining barcha faoliyat turlari uchun umumiyligi va majburiyi. Qolgan ramziy tizimlar jamiyatning alohida guruhlari, ayrim faoliyat turlari uchun xoslangan. Uning birliklariga darakchi va xabar nomutanosibligi xususiyati xos va bu masala ustida alohida to'xtalish lozim<sup>27</sup>

Demak, tilshunoslikda ham ramz va Sistema degan atamalar bor. Bu atamalarning ma'nolariga nazar tashlar ekanmiz, ularning umumiyligi xususiyati til bilan aloqador. Tilning ramziy sistemasini yaratar ekanmiz, butun bir tilshunoslikka oid bilimlar majmuasini o'rGANAMIZ. Til strukturasi va til sistemasi bir – biriga bog'lanib turadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Xolmanova Z. T. tilshunoslikka kirish. Toshkent – 2007. Bet : 30
2. H. Ne'matov, B. Mengliyev, A. Botirova. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Monografiya. "GlobeEdit" nashriyoti. Toshkent – 2020. 70 bet
3. Философский словарь. Под ред. М. М. Розенталя, П. Ф. Юдина. –М.: Изд. СЭ. 1968. –С.120
4. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Monografiya. Toshkent – 2020. Bet: 73
5. Словар иностранных словю – М.: ИЗД. СЭб 1964. –С 583
6. Степанов Ю. С., Семиотика, М. 1971
7. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Toshkent – 2020. Bet: 77-78
8. M. T. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Yoshlar matbuoti nashriyoti. Toshkent – 2009. 227 bet
9. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Toshkent – 2020. Bet: 80-81

<sup>27</sup> Tilshunoslikning falsafiy masalalari. Toshkent – 2020. Bet: 80-81